

Idiomalar - milliy o‘zlikni anglash va farqlashning muhim vositasi

Gulchexra Xolmurotovna Begmatova
TerDU

Annotatsiya: Ushbu maqolada idiomalarning milliy o‘zlikni anglash vostasi ekanligi turli badiiy matn misolida yoritilgan. Globallashuv davrida til birliklarini keyingi avlodga yetkazishda bu birliklarning ahamiyati muallif nuqtai nazari bilan ifodalangan.

Kalit so’zlar: idioma, milliy xoslanish, vosita, globallashuv, xalq, farqlash

Idioms are an important means of understanding and distinguishing national identity

Gulchekhra Kholmurotovna Begmatova
TerSU

Abstract: In this article, the fact that idioms are a means of understanding the national identity is highlighted on the example of various literary texts. The importance of these units in the transmission of language units to the next generation in the era of globalization is expressed from the author's point of view.

Keywords: idiom, national identity, tool, globalization, people, differentiation

Idioma - frazeologik birliklarning to‘liq milliyashgan, tarjimada faqat muqobil(ekvivalentlik) variantga ega, qoliplashgan va nutqqa tayyor holatga olib kiriladigan frazeologik chatishmaturidir. Bu birlik qaysi til vakillariga tegishli bo‘lsa, shu tilning xususiyatlarini ochib berishda foydalanildi. Bir til oilasiga mansub bo‘lsa-da, qarindosh tillar orasida ham idiomalar o‘zaro farqlanadi va xususiy xarakter kasb etadi. Xususan, avvalgi tadqiqotimizda idiomalarni turli til oilalari va til vakillari tomonidan o’rganilishida, nafaqat turlicha nomlanishlar deyim, chengua, idioma, frazeologik chatishma va boshqalar), balki boshqa birliklarning bu turga kiritish haqidagi fikrlarni ham uchratamiz. Idiomatika va uning o’rganilishi ikki tarmoq mintaqaga bo‘lib o’rganilishi uning semantikasini ham kengaytirib yubordi. Ular bir-birini to’dirish barobarida keskin farqlanishlarga ham ega edi. Birinchi tarmoq - anglo-amerika tarmog’i yorqin namoyondalari sifatida F.Palmer va G.Smit o‘z tadqiqotlarida idiomalar haqida nazariy fikrlar bera boshladi, ammo bu tarmoq vakillari umumlashma yagona nazariyani shakllantira olmadi, shunga qaramay bu yo’nalishda idioma

ma'lumotnomalari va lug'atlarni taqdim etishgani diqqatga sazovordir. V.D.Ujchenko va D.V.Ujchenkolarning fikricha, frazeologik tarkibning "yuragi" idioma hisoblanib, bu qayta o'ylab taxlangan birliklar motivlashtirilgan xarakterga egaligi bilan o'ziga xosdir¹.

Yaqin paytlargacha idiomatika va uning til taraqqiyotida o'rganilishi akademik V.Vinogradov nomi bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, keyingi izlanishlarimiz natijasida bu sohaning ilk kashfiyotchisi rus olimi, professor Igor Yevgenovich Anichkov ekanligi va u idioma haqidagi fikrlarini 1927 yillarda o'rtaga tashlaganligi, ba'zi tarixiy sabablar tufayli uning keyingi taraqqiyoti biroz sekinlashganligi aniqlandi. O'zbek tilida idiomalar masalasi frazeologizm tarkibida Muborak Ro'ziqulova tomonidan o'rganildi. Olima tomonidan Samarqand davlat universiteti ilmiy kengashida "O'zbek tilida idioma" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasi yoqlandi.

Idioma va uning xususiyatlari quyidagi asosiy ko'rsatkiuchlari mavjud. Yangi idiomatik so'z - quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

- 1) lingvistik jamiyat a'zolari uchun tushunarllilik;
- 2) qisqalik va ifodalilik;
- 3) ohangdorlik;
- 4) mazmunlilik;
- 5) yodda saqlash osonligi.

Ushbu so'z jamiyat uchun muhim va zarur bo'lgan haqiqatni anglatishi kerak. Mazkur xususiyatlar yangi so'zni istiqbolli va ona tilida so'zlashuvchilar tomonidan davomli tarzda foydalanish uchun zarur bo'lib, bu uning tilning umumiy qabul qilingan birligiga aylanishiga yordam beradi². Idiomalar milliy o'zlikni anglash vositasi ekanligi badiiy asarlar, publisitik nashrlar matnlari orqali yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Misol uchun Nurilla Chorining "Tashvishi yo 'q odamlar: hikoyalar va kinossenariylar" asarlar to'plamida quyidagi idioma orqali milliy o'ziga xoslik ko'rsatilgan: "*Uni sen ham eshitsang, ah, bir boragina eshitsang, deb o'z maylida kuyib kuylayotgan, almisoqdan qolgan pachoq radiosini Tashman tuya tayog'ibilan turtdi*"³.

Puchuq obdasta - o'zga aloqasi yo'q yoki aqli yetmaydigan gap-so'zga, ishga aralashadigan odamga nisbatan, uni kamsitib, tanbeh yuzasidan aytildi⁴. Misol: *Sen puchuq obdasta o'lgurga kim qo'yibdi birovlarning ishiga aralashishni?*⁵. Idiomalar tarkibida va semantikasida milliy kolorit beruvchi elementlar mavjudligi uning

¹ Ужченко В. Д. Фразеологія сучасної української мови : [Навч. посіб.] / В. Д. Ужченко, Д. В. Ужченко. – К.: Знання, 2007. – 494 с.

² Ибрагимходжаев И., Икрамов Т.Т. Антропоцентрические основы процесса идиоматизации сложных слов //Ўзбекистонда хорижий тиллар. — 2020. — № 6 (35). — С. 81–97.

³ Nurulla CH. Tashvishi yo'q odamlar: hikoyalar va kinossenariy/Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodi yuvi, 2019.-104 b.

⁴ Бегматова Г. Ўзбек тили идиомаларининг кичик изоҳли лугати. ТерДУ нашр-матбаа маркази нашриёти. Термиз, 2021, 39 б.

⁵ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/said-ahmad-1920-2007/said-ahmad-odam-va-bo-ron-hikoya>

xalqchilligini ta'minlaydi. Bunday birliklar idioma tarkibidan ajratib olinmasa-da, umumiy mazmunga ta'sir qiladi. Ma'lumki, milliy xoslanish e'tiqod, turmush tarzi, insonlar o'rtasidagi muloqot va ma'lum voqeа-hodisa asosida ifoda etiladi. O'zbek xalqiga xos bo'lgan uy-ro'zg'or jihozlari garchi boshqa til manbalari bilan ifodalansa-da, u allaqachon milliy til birligi sifatida tilimizda faol qo'llanilmoqda. Global lashuv jarayonida milliy o'zlikni anglash orqali millat sifatida o'zini kursatish deb emas, balki jahon hamjamiyatida millat sifatida yo'q bo'lib ketishni oldini olish, milliy davlatchilikni saqlab qolish, rivojlantirish va eng muhimi, mamlakatda istiqomat qiladigan fuqarolarning milliy birdamligini ta'minlash orqali taraqqiyot erishish, islohotlar sur'atlarini jadallashtirish mumkin⁶. Idiomalar esa bu jarayonning muhim vositasi sifatida milliy xoslanish va o'zlikni anglashga xizmat qiladi.

Xulosa shuki, barcha tillar o 'z milliy xoslanish birliklariga ega. Bu birliklar orasida idiomalarning vazifasi va o 'rni beqiyos. Shuning uchun bu kabi birliklarni keyingi avlodga yetkazish til yashovchanligini va o'ziga xosligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бегматова Г. Ўзбек тили идиомаларининг кичик изоҳли лугати. ТерДУ нашр-матбаа маркази нашриёти. Термиз, 2021, 38 б.
2. Ибрагимходжаев И., Икрамов Т.Т. Антропоцентрические основы процесса идиоматизации сложных слов //Ўзбекистонда хорижий тиллар. — 2020. — № 6(35). — С. 81–97.
3. Nurulla Ch. Tashvishi yo'q odamlar: hikoyalar va kinossenariy /Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2019.-104 b.
4. Said Ahmad. Odam va bo'ron (hikoya) <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/said-ahmad-1920-2007/said-ahmad-odam-va-bo-ron-hikoya>
5. Ro'Ziqulov, A. A. (2021). MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH JAMIYAT HAYOTIGA QANDAY TA'SIR ETADI?. Экономика и социум, (6-1 (85)), 244-246.

⁶ Ro'Ziqulov, A. A. (2021). MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH JAMIYAT HAYOTIGA QANDAY TA'SIR ETADI?. Экономика и социум, (6-1 (85)), 244-246.